



## ABDULLA QODIRIYNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7852601>

**Karabayeva Soxiba**

*Guliston davlat universiteti*

*O'zbek tilshunosligi*

*kafedra magistiri*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarida so'zlarni qo'llash mahorati masalasiga bag'ishlanadi. Adibning hajviy asarlarida qo'llangan so'z va jumlar maqolaning illustrativ material sifatida xizmat qiladi.

**Tayanch so'z va iboralar.** Asar, feleton, hajviya, maqol, matal, aforizm, tahlil, tasnif, leksema va b.

Biz ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarida so'zlarni qo'llash mahorati haqida to'xtalamiz. Qodiriyning ijod namunalari ko'p o'rganilgan. Asarni qayta mutoala qilish jarayonida biz adibning ochilmagan qirralariga duch kelaveramiz. Shunday ekan Abdulla Qodiriy ijodi qancha chuqur tadqiq etilsa, shuncha yangi topilmalarga duch kelveramiz.

Til adabiyotning ifoda quroli sifatida ijodkorning maqsadini ifodalab beradi. Lisoniy birliklar fikrni bayon qilish uchun katta imkoniyat hisoblanadi, shuning uchun har bir ijodkor undan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Abdulla Qodiriy ham tildan foydalanishda o'ziga xos uslubga ega ijodkordir. Uning romanlari tili bilan hajviy ruhda yozilgan asarlari tili o'rtasida katta tafovut bor. Insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishida adabiyotning roli katta, bu esa til orqali amalga oshadi. Ijodkorlarning tildan foydalanish mahorati biri ikkinchisiga o'xshamaydi, shu ma'noda, Qodiriy ijodiy merosini o'rganish barchani birdek qiziqtiradi, bizningcha. Alohida ta'kidlash kerakki, Abdulla Qodiriy yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan asarlar bu – uning hajviyalari, aniqrog'i, "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" va "Toshpo'lat tajang nima deydi?" hajviy qissalari bo'ldi.

Adib "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" qissasida haqiqiy hayotdan butunlay uzilgan, xurofotdan boshqa narsani ko'ra olmaydigan mahalla masjidi imomi Kalvakning kulgili sarguzashtlari, tug'ilishidan boshlab boshidan kechirgan voqea-hodisalar o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda nihoyatda ta'sirli hikoya qilinadi.

Abdulla Qodiriyning yirik asarlari to'liq yetib borgunga qadar ham Julqunboy nomi xalq orasida mashhur bo'lgan. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, turli nashrlarda har xil imzolar bilan yozilgan birorta asar yo'qki, unda kulgi, tanqid va yo bittagina bo'lsa-da, o'tkir so'z, qochirim ibora bo'lmasa. Qodiriygagina xos nodir jumlar, tesha tegmagan iboralar, maqol va matallar bu jajji asarlarga yanada jozibadorlik



bag'ishlagan. Muhimi shuki, boshqalar tilda qo'pol, uyatsiz bo'lib yangraydigan so'kish va haqorat so'zlari ham Ovsar yoki Dumbul, Kalvak feletonlarida o'zining dag'al ma'nosini biroz o'zgartiradi, o'quvchi qulog'iga yoqimli eshitiladi. Masalan, yozuvchi bir feletonida o'z qahramonini *"qornini yorg'anda alif o'rniga loaqal kaltak chiqmayturg'an dardisar"* deb ta'riflaydi<sup>46</sup>. Uning besavod bir johil ekanligini oddiy so'z bilan tasvirlab bo'lmas edi.

Qodiriyning aksariyat hajviyalarining nomi – sarlavhasi ham kishida kulgu paydo qiladi. Masalan, *"Diyor bakr"* bo'limiga kiruvchi *"Dumbasi tushib qolgan emish"*, *"Tilanchilik yoxud yengil kasb"*, *"Sho'x baytal"*, *"Hoy, yer yutkur"*, *"Og'zingga qarab gapir!"*, *"Ay, xuday urganlar"*, *"Echkining oti Abdukarim"*, *"Shallaqi"*, *"Dardisar"*, *"Ibi, axmaq bo'lingchi"* kabi kichik asarlar o'z nomi bilan jamiyatning katta, zalvorli muammolari, mavjud illatlarni fosh etadi.

Maqolalarning nomidan ham ko'rinib turibdiki, hajviyalarda o'zbek tili leksikasining salbiy, kinoyaviy, tagma'no ifodalovchi ta'siriy bo'yoqdor so'zlaridan unumli foydalanilgan.

*"G'idi-bidi gaplar"* hajviyasi bir so'fi haqida: *"Ko'zining yoshidan soqolig'a marvarid munchoq osibdir"*, degan boshqalarda uchramaydigan jumla mavjud. Nomlanishi oddiy bo'lgan hajviyalarida ham ichakuzdi gaplar ko'plab topiladi. *"Olti yillik bazm"* maqolasida esa, shunday yozadi: *"To'rt tomong'a yugurib tili bir yarim qarich osilg'an; bir ko'zi Mag'ribda, bir ko'zi Mashriqda; serharakatu bebarakat..."*<sup>47</sup>

Qodiriy madrasada o'qigan, rus-tuzem maktabida ham ta'lim olgani bois, arab, fors va rus tillarini yaxshi bilgan, ammo u, avvalo, o'z ona tilining bor go'zalligi-yu jozibasini nozik jihatlarigacha his qila olardi. Shuning uchun so'z qo'llash, jumla tuzish borasida usta so'z san'atkori deyish mumkin. Qodiriy asarlarining ko'pchilikka manzur bo'lishi va uning xalq mulkiga aylanishida maqol va matallarning ham o'rni beqiyos. *"It suyak chaynamasa, tishi qichiydir"* maqoli – *"O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'ymas"* maqolasida keltirilgan bo'lib bu ham matnga ta'sirchan hajviy ruh berishga xizmat qilmoqda<sup>48</sup>.

Hamma vaziyatlarda ham qo'llab bo'lmaydigan, ko'proq xalq tilida faol maqollarni o'z hajviyalarida ustalik bilan ishlatadi. *"Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?"* maqolasida *"Ishtonsizning cho'pdan hadugi bor"*, deydi. Muhim jihati shuki, sarlavha bilan maqol o'rtasidagi ma'no nihoyatda uyg'un. *"Osh tegsa – to'y, tegmasa, tomosha"*, *"Avatiga chavati, misqozonga loytuvoq"*, *"Eshagiga yarasha tushovi"* – *"Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyg'anda ko'r"* maqolasida berilgan.

Endi xalq tilini ham ma'lum ma'noda boyitishga ijodkorlar ham o'z hissalarini qo'shib keladi. Yoki biroz ijodiy yondashadi. *"Ko'z bo'lmasa, qoziqning o'rni"*, *"Miya bo'lmasa, shaloq arava ham miyaga hisoblanur emish"*, *"Quvondiq sassiq o'z aybini bila qolsa, yuragi yorilib o'lar ekan"*, *"Bordan yuqar, yo'qdan nima chiqar?"* va boshqalar.

<sup>46</sup>Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикасининг шаклланиши ва ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б.36.

<sup>47</sup>Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – Москва: Русский язык, 1988.

<sup>48</sup>Қодирий А. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 183.



Bo'lar-bo'lmas mavzularni qalamga olaverish, o'zining iborasi bilan aytganda *"Har kimga o'xshab bekorga kuchana berish"* adib maslagiga yot bir ish edi, lekin millat sha'ni, yurt obro'si kabi masalalarda Abdulla Qodiriy sovuqqon yoxud, menga baribir, qabilida loqayd va beparvo bo'lmagan.

Hajviyalarning sarlavhalarida ham Qodiriy barqaror birikmalardan, xususan, ibora va maqollardan samarali foydalanganini ko'rish mumkin. Masalan, *"Kelinni kelganda ko'r..."*, *"O'rgangan ko'ngil o'rtansa, qo'ymas"*, *"Tarbuzi qo'ltig'idan tushdi"*, *"O'zi xon ko'lankasi maydon"*, *"Qo'rqan oldin musht ko'tarar"* kabi hajviyalari mavjud bo'lib, mazkur lisoniy birliklar ijodkor topgan favqulodda dolzarb mavzu bilan lug'atdagiga qaraganda kuchliroq, ta'sirchanroq ma'no ifodalaydi.

Abdulla Qodiriy ijodiy merosida qariyb saksandan ortiq katta-kichik hajviyalar o'z mavzui, janri jihatdan bir-birini to'ldirib, o'zbek milliy hajviyasi zaminini yaratadi. Xususan, *"Tinch ish"*, *"Kalvak Maxzumning xotira daftaridan"*, *"Toshpo'lad tajang nima deydi?"* kabi hajviy hikoyasi, qissalari adib ijodida ham, umumadabiyotimiz rivojida ham muhim hodisadir.

To'g'ri, adib hajviyachiligi o'z-o'zidan yaralmagan. Eng avvalo, xalqning boy ijodi, ming yillik sharqona adabiyot, shuningdek, adabiyotning noyob hajviya namunalari mahorat maktabi vazifasini bajargan, deyish mumkin. Zero, adibning *"Kalvak Maxzumning xotira daftaridan"*, yoki *"Toshpo'lad tajang nima deydi?"* kabi hajviy qissalari, undagi obrazlar nutqi va muomilasida mashhur Afandi latifalari, xalq kitoblari, ertak va dostonlariga xos tasvirlash usullari va uslubi qo'shib ketgan. U yaratgan *Sharif Oxund*, *Shirvon xola*, *Kalvak Mag'zum*, *Toshpo'lad tajang* kabi xarakterlarni ifodalovchi nomlar faqat ijodkorning o'zigagina tegishlidir<sup>49</sup>.

Abdulla Qodiriyning *"Tinch ish"* hikoyasini ko'p qodiriyshunoslar hajviy asar sirasiga kiritmasligiga ham guvoh bo'lish mumkin, biroq *Sharif Oxund* obraziga kelganda undagi hajviylikdan ko'z yumib bo'lmaydi. Chunki *Sharif Oxund* o'z ma'no-mohiyati bilan hajviy qahramondir. U sodda kulgudan ko'ra, achchiq, kinoyali kulguga mansub. Asardagi lavhalar asar qahramoni *Sharif Oxund* xarakteri yechimida o'ziga xos bosqichlarni hosil qilgan. Birinchi lavhada qahramon xarakteri va holatiga xos portret yaratilgan bo'lsa, ayni chog'da uning ikki muhim belgisi, islomiyligi va siyosiyliqi qayd etilsa, ikkinchi lavhada oq podsho Nikolayning taxtdan tushish oqibati, buning qahramon ruhiyatiga ta'siri ifoda etiladi<sup>50</sup>.

Abdulla Qodiriy yaratgan deyarli barcha hajviy asarlarda ana shunday ijtimoiy-siyosiy fikr u yoki bu tarzda o'z ifodasini topgan. Bu jihatdan adib yaratgan *"Kalvak Maxzumning xotira daftaridan"* hamda *"Toshpo'lad tajang nima deydi?"* kabi hajviy qissalari muhim ahamiyatga egadir. Har ikkisi ham qurilishiga ko'ra o'ziga xos bo'lib bir-birini takrorlamaydi. Agar *"Kalvak Maxzumning xotira daftaridan"* qissasi qariyb yigirmaga yaqin hajviyalardan tarkib topgan bo'lsa, *"Toshpo'lad tajang nima deydi?"*

<sup>49</sup>Кодирый А. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – Б. 77.

<sup>50</sup>Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва: Русский язык, 1989. – 151 с.



qissasi o'ndan ortiq turkum asarlardan tarkib topgan. Har ikki asarda ham bosh qahramon o'sha alohida-alohida turkum maqomida hajviyalarni bir-biriga bog'lab turadi va asarga yaxlitlik bag'ishlaydi. Shuningdek, hayot illatlaridan kulish, ijtimoiy illatlar, nuqsonlarni bartaraf etishga qaratilgan tanqid ruhi bo'laklarini uzviy bog'laydi, g'oyaviy-badiiy birlik yuzaga keladi.

Ba'zi qodiriyshunoslar bu holatni feletonlar tizmasidan, turkumidan iborat deb hisoblaydi. Zero, hajviy adabiyotning asosiy xususiyati, belgisi mavjud hayotiy illatlarni, insondagi nuqsonlarni hajv etishga shu asosda obyektни yo tasdiqlash, yo inkor etish maqsadlarini ilgari suradi. Albatta unda kulgu, tanqidiy ruh ustuvorlik qiladi. To'g'ri feletonda ham shu holat yetakchi ammo, u aniq shaxsga, aniq davrga, aniq obyektga qaratilganligi bilan farqlanib turadi. Binobarin, feleton janrida badiiy umumlashtirish, individuallashtirish hajviy hikoya yoki qissaga nisbatan chegeralanganligi bilan farqlanadi. Modomiki, shunday ekan, mavjud har ikki qissani faqat feletonlar yig'indisi, turkumi yoki to'plami deb baholash mavjud qissalar xususiyatini va hajviy individualligini anglamaslikka olib boradi<sup>51</sup>.

Abdulla Qodiriyning hajviyachilik sohasidagi yozganlari o'z salmog'iga ega ekanligi shubhasiz, shu o'rinda uning hajviy asarlari so'ngida qo'llagan taxalluslari leksikasiga ham alohida to'xtalish lozim. Yozuvchining o'z maqolalari ostiga imzo sifatida qo'yayotgan taxalluslari har qanday o'quvchini o'ziga tortadi va ta'sirlantiradi. Masalan, uning *"Kalvak maxzum"*, *"Toshpo'lod tajang"*, *"Dumbul"* *"Shilg'ay"*, *"Mirza Julqun"*, *"Ovsar"*, *"Jiyan"*, *"Shayton"*, *"Sarimsoq"*, *"Oxund"*, *"Shoshiy"*, *"Chichora"*, *"Shakkok"* hatto ayol kishi tilidan hikoya qilingan hajviyalariga *"Dumbulnisa"* deb taxallus qo'yilishi o'ziga xos uslubni anglatadi.

Adibning 1926-yil nashir etilgan *"Mushtum"* jurnalida "...quyidagi kuldarguchilarimizga ishonib ish ko'rsa bo'ladir" deb keltirgan so'zlar ham o'zi kabi ijod qilayotgan hajvchilarning taxalluslari bo'lishi kerak. *"Mag'zava"*, *"Mehtarbod"*, *"Yamoqchi"*, *"Bo'riboy"* (*Bahman*), *"Beandisha"*, *"Qurum"*, *Murot*, *"Dardmand"*, *"Iblis"*, *"Zarra"*, *"O'sh shapalog'i"*, *Sanjar*, *"Eski qo'rqqoq"*, *"Guruppa boz"*, *"Chalpak"*, *"Tirrancha"*, *"Achicha qo'qon"*, *"Yoza bilmas"*, *"Yo do'st"* va boshqalar<sup>52</sup>.

Qodiriy hajviyalarining estetik jihatdan bu qadar ta'sirchan bo'lishida ijodkorning o'zbek tili leksikasidagi kinoya va boshqa ko'chma ma'noli leksemalardan foydalangani bilan izohlash mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бобониёзов А. А.Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романида тасвирий воситалар ва тил бадиияти: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1995.

<sup>51</sup>Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикасининг шаклланиши ва ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – Б.38.

<sup>52</sup>Mazkur ma'lumot *"Mushtum"* jurnalining 1926-yil, 24-sonidan.



2. Джалолова Л.О. Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фанлари номзоди... дисс....автореф. – Т., 2007.
3. Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – Москва: Русский язык, 1989. – 151 с.
4. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – Москва: Русский язык, 1988.
5. “Mushtum” jurnali 1926-yil, 24-soni.
6. Омонтурдиев А.Ж. Профессионал нутқ эвфемикаси (чорвадорлар нутқи мисолида): Филол. фанлари д-ри. ...дисс. – Тошкент, 200
7. Каххарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Т., 1985.
8. Худойқулов М. Ўзбек ҳажвий публицистикасининг шаклланиши ва ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. док. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2001.
9. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 1994.
10. Қодирий А. Диёри бакр. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007.